

*Amanov A.K*  
*Urganch davlat universiteti*  
*“Geografiya” kafedrasи o’qituvchisi*  
*Nazarov D.M*  
*Urganch davlat universiteti*  
*Geografiya yo’nalishi 1-kurs talabasi*

**QUYI AMUDARYO IQTISODIY RAYONIDAGI MAXSUS IQTISODIY  
ZONA, KICHIK SANOAT ZONASI, TEXNOPARK VA  
KLASTERLARNING IQTISODIY GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI**

**ЭКОНОМИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ОСОБОЙ  
ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЗОНЫ, МАЛОЙ ПРОМЗОНЫ, ТЕХНОПАРКА И  
КЛАСТЕРА НИЖНЬЙ АМУДАРЬИНСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО  
РАЙОНА**

**ECONOMIC GEOGRAPHICAL CHARACTERISTICS OF SPECIAL  
ECONOMIC ZONE, SMALL INDUSTRIAL ZONE, TECHNOPARK AND  
CLUSTER IN LOWER AMUDARYA ECONOMIC DISTRICT**

***Anotatsiya.** Ushbu maqolada Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonidagi maxsus iqtisodiy zonalari(keyingi orinlarda MIZ), kichik sanoat zonalari(keyingi orinlarda KSZ), texnoparklar va klasterlarning rivojlanishidagi o’ziga xos iqtisodiy geografik xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Keyingi yillarda iqtisodiy rayon iqtisodiyotida muhim sanalgan MIZ, KSZ, texnoparklar va klasterlar, hamda ularning o’ziga xos jihatlari iqtisodiy-statistik va iqtisodiy-geografik tahlil usullar yordamida ochib berildi. Shu bilan birga Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni sanoatining kelajakdagi istiqbollari haqidagi taklif va tavsiya ishlab chiqildi.*

***Kalit so’zlar:** eksport, import, investitsiya, kichik sanoat zona, klaster, maxsus iqtisodiy zona, sanoat, texnopark.*

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются особые экономические зоны (далее МИЗ), малые промышленные зоны (далее КСЗ), технопарки и кластеры в развитии особых экономических зон в Нижний Амударьинском экономическом районе. В последующие годы методами экономико-статистического и экономико-географического анализа были выявлены МИЗ, КСЗ, технопарки и кластеры, которые считались важными в*

экономике экономического региона, и их специфика. При этом были разработаны предложения и рекомендации по дальнейшим перспективам промышленности Нижнй Амударинского экономического района.

**Ключевые слова:** экспорт, импорт, инвестиции, малая промышленная зона, кластер, особая экономическая зона, промышленность, технопарк.

**Abstract:** In this article, special economic zones (hereinafter referred to as MIZ), small industrial zones (hereinafter referred to as KSZ), technoparks and clusters in the development of special economic zones in the Lower Amudarya economic region are discussed. In the following years, MIZ, KSZ, technological parks and clusters, which were considered important in the economy of the economic region, and their specific aspects were revealed using economic-statistical and economic-geographical analysis methods. At the same time, a proposal and recommendation about the future prospects of the industry of the Lower Amudarya Economic Region was developed.

**Key words:** export, import, investment, small industrial zone, cluster, special economic zone, industry, technological park.

**Kirish.** Mintaqalar iqtisodiyotining rivojlanishi u yerdagi tabiiy va ekologik sharoit, resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi, tarixiy rivojlanganlik, hukumatning olib borayotgan to'g'ri islohatlari kabi bir qator omillar ta'sirida bo'ladi. Qachon-ki yuqoridagi omillar bir-biriga uyg'un holatda bog'liqligi amalga oshsa, ushbu hududda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish kuzatiladi. Bu borada iqtisodiyotning har bir jabhasiga turtki bo'ladigan, hukumat islohotlarining ahamiyati beqiyosdir. 2017-2021 yillarga va keyinchalik 2021-2026 yillarga mo'jallangan "Harakatlar strategiyasi" davlat dasturlarida bunday islohotlarini amalga oshirish, ayniqsa o'z ifodasini topgan.

**Adabiyotlar tahlili.** Davlat dasturlarida quyidagilarga alohida e'tibor qaratilgan.

Viloyat, tuman va shaharlarni, kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtsiodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidansamaarali va optimal foydalanish:

-ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral-xomashyo, sanoat,

qishloq xo'jaligi turistik va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash;

-hududlar iqtisodiyotini moderinizatsiya va diversifikatsiya qiish ko'lамини kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lgan tuman va shaharlarni, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo'li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdarajasidagi farqlarni kamaytirish;

-yangi sanoat korxonalari va servis markazlarini tashkil etish, kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, yirik xo'jalik birlashmalarining mablag'larini, banklarning kreditlari va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga kichik shaharlar va shaharchalarni jadal rivojlantirish;[1].

Ushbu farmon ijrosi doirasida Quyi Amudaryo iqtisodiy rayon hududida amalga oshirilgan ishlar mintaqani kompleks rivojlanishidajuda muhim rol o'ynadi. Misol tariqasida, Pitnak sanoat qutbi va Mo'ynoq turistik markazi ko'rsatish mumkin. Bu borada MIZ, KSZ, texnopark va klasterlarning o'rni beqiyosdir.

Mamlakatimizda 2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra jami 20 ta MIZ, 116 ta KSZ, 12 ta texnopark va 467 ta klasterlar mavjud bo'lib, ularning tarkibidagi korxonalar soni 2864 tani tashkil etgan [2].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Jumladan Qorqalpog'iston Respublikasida 2 ta "Nukus" va "Qoraqalpoq-agro" erkin iqtisodiy zonalari, hamda Xorazm viloyatida "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonasini bunyod qilingan.

### 1-jadval

#### Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonidagi MIZ, KSZ, texnopark va klasterlar soni

Iqtisodiy rayon tarkibidagi ma'muriy birliklar	Jami	Shu jumladan			
		MIZlar soni	KSZlar soni	Texnoparklar soni	Klasterlar soni
Qoraqalpog'iston Respublikasi	90	2	11	-	77
Xorazm viloyati	63	1	11	7	44

<b>Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni</b>	<b>153</b>	<b>3</b>	<b>22</b>	<b>7</b>	<b>121</b>
---------------------------------------	------------	----------	-----------	----------	------------

*Jadval O'zbekiston statistika qo'mitasi hamda internet saytlari ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlandi.*

Mintaqda KSZlarining umumiy soni 22 tani tashkil qilib, har ikki ma'muriy birlikka 11 tadan to'g'ri keladi, hamda ular mintaqa sanoati rivojida keyingi yillarda muhim o'rinni egallaydi.

**Texnopark**, bu — hududiy, ilmiy, texnologik va innovatsion loyihalarni amaliyatga tadbiq etuvchi texnologik baza hisoblanadi. Texnopark — mulk kompleksi bo'lib, u ilmiy-tadqiqot institutlari, sanoat obyektlari, biznez markazlari, ko'rgazma maydonlari, ta'lim muassasalari, va shuningdek, xizmat ko'rsatish obyektlari: transport vositalari, o'tish yo'llari, aholi yashaydigan qishloqlar va qo'riqlash xizmatini o'z ichiga oladi [4].

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonining Xorazm viloyatida 7ta texnopark tashkil qilingan, bu butun mamlakatimizdagi texnoparklaring yarmidan ko'pi demakdir. Ammo ularning aksariyati o'z faoliyatini endi boshlagan sanaladi.

Klasterlarni rivojlantirish mintaqalarda iqtisodiy o'sishni rivojlantirish vositasi sifatida hukumatning kun tartibiga kiritilgan [3], va Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonida turli sohalarda 121 ta klaster tashkil qilingan.

**XULOSA.** Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonida yo'qilg'i-energetika, kimyo, qurilish resurslari va arzon ishchi kuchining , shuningdek qishloq xo'jaligi ekinlari hosili(xususan, paxta tolasi, bog'dorchilik va uzumchilik, sabzavot hamda poliz ekinlari)ni qayta ishlash imkoniyatlarining mavjudligi va kabi boshqa omillar kelajakda xorijiy va mahalliy investorlarning ishonch bilan investitsiya kiritishi bilan sanoat tarmog'ining rivojlantirish asos bo'ladi.

Xulosa o'rnida, Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni sanoat tarmoqlarining jadal rivojlantirishda:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi MIZlari, KSZlari, texnoparklar va sanoat klasterlarining yanada jozibadorligini oshirish va bu orqali ko'proq investorlarni jalb qilish;

- zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari asosida mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash;
- mahalliy xomashyo va resurslarni chuqur qayta ishlash asosida xorijiy va mahalliy sarmoyadorlar mablag‘larini jalgan holda, sanoat va qishloq xo’jaligi mahsulotlarini qayta ishlash orqali yangi mahalliy brend mahsulotlar ishlab chiqarishni joriy etish maqsadga muvofiq.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи PF-4947-sonli Farmoniga 3-ILOVA
2. O’zbekiston Respublikasi statistika qo’mitasi. O’zbekiston Respublikasida maxsus iqtisodiy zona, kichik sanoat zonasi, texnopark va klasterlar faoliyati (2022- yil yanvar-iyun) Toshkent-2022.
3. GOàSPIN Илм-фан, технология ва инновацион сиёsat бўйича мамлакат профиллари 10-Жилд
4. <https://nsp.gov.uz/technos/>